

## **“HAZRATI ISHQ” - HAYRATI ISHQ**

*Sitorabonu Hoshim qizi,*

*Xalqaro Nordik universiteti dotsenti,*

*O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi*

“Usmon she’riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi”... Turob To‘laning ushbu ta’rifî Usmon Nosir ijodiga berilgan munosib baho edi. Hech ikkilanmasdan mazkur ta’rifni marhum shoir Mansur Jumayevga nisbatan ham ishlatish mumkin.

U qisqa umri davomida o‘zidan katta lirik meros qoldira oldi. Shoir juda ham shoshilib yashaganini, judayam shoshqinlik bilan ijod qilganini uning she’rlarini mutolaa qilish davomida yanada teran anglash mumkin.

Shoirlar yarim avliyodirlar, degan bir hikmatni o‘qigandim bir mahallar. Ularga oddiy odamlarga ma’lum bo‘lmagan narsalar ma’lumdir. Mansur Jumayevning “Hazrati ishq” kitobini o‘qish jarayonida shoirning har bir she’ri, har bir satri bilan Oliy Jamolga bir qadam yaqinlashib borganini his qilish mumkin.

Shoир she’rlarini shartli ravishda 3 guruhga bo‘lib o‘rganish o‘rinlidir:

1. Ilohiy ishq (hazrati Ishq) navolari.
2. Insoniy muhabbat kuylangan ijod namunalari.
3. Ijtimoiy motivlar asosidagi she’rlari.

Ilohiy ishq yo‘lida yozilgan ash’orlar bizni olis tarix tomon yetaklaydi. Tasavvufning sirli ohanglarini, Ishqi haiqiqiyning nozik asrorlarini ongimizda jonlantiradi.

Popuklari kuloh darvesh bo‘lganman,  
Ozod shamollarga tanish bo‘lganman,  
Qanday unutayin, eh ona daryo,  
Nay bo‘lishdan oldin qamish bo‘lganman.

Ushbu to‘rtlikda shoirona iqrorlar o‘qirmanni olis moziyga olib boradi. Mavlono Rumiyning “Bishnav az nay, chun hikoyat mekunad, Az judoyiho shikoyat mekunad” (“Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay, Ayriliqlardan shikoyat aylagay”) satrlari beixtiyor qulog‘imizda jaranglaydi.

Yuqoridagi to‘rtlikdayoq lirik qahramon samimiyyati, rostgo‘yligi bilan o‘quvchini o‘z ortidan ergashtiradi. She’rxon shoirning darvesh bo‘lganiga, ozod shamollarga tanish ekaniga va nay bo‘lishdan oldin qamish bo‘lganiga ishona boshlaydi. Nay - ayriliqdagi solik timsoli bo‘lib, mumtoz adabiyotimizda ko‘p qo‘llanadigan obrazlardan biridir. Quyoshdan ayro tushgan zarra, ummondan uzilgan qatra holati ayni nayda mujassam.

Shoirning she’rlarida insoniy muhabbat Ilohiy ishq uchun ko‘prik vazifasini bajaradi. Buni mumtoz adabiyotda mazhar ishqini deb ham yuritishadi. Mazhar - Majnun uchun Layli, Farhod uchun Shirin edi. Mazhar - Yaratganning nuri tushgan yaratiq edi. Ayni shu holatlarga ishora qilib shoir yozadi:

Netong, bu yo‘l tumani

Vidoga olib borsa;

Bir gulning ishqini mani

Xudoga olib borsa!

Insoniy ishq orqali poklanib, Xudoga yuzlashish haqidagi fikrlar tarannum etilgan bu satrlarda Hazrat Navoiyning “Haqiqatga badal bo‘ldi majozi” misralarini eslatuvchi ifoda mavjud.

Mansurning “Tangriga maktublar” deb nomlangan turkumi adabiyotimiz tarixidagi munojotlarni yodga soladi. To‘rtta maktubdan iborat turkumning birinchi maktubida quyidagi satrlar bor:

Ey ko‘zimni aylagan soqiy,

Ey so‘zimni sor aylagan zot.

She'rlarimni shifo qil boqiy,

She'rni menga kor aylagan Zot!

Shoir o'zining ijtimoiy pozitsiyasini eslab o'tgan ushbu to'rtlikda ijodining asosiy fenomeni bo'y ko'rsatgan. Mazkur bandda muallif o'z she'rlarini abadiyga insoniyat uchun shifo bo'lishini duo qilib so'ramoqda. Mansur Jumayev she'rlari xasta dilga shifo bo'ladigan, huzunli qalbga taskin bag'ishlaydigan xususiyatlarga ega durdonalar ekanini uning iltijolari, munojotlari, Tangriga to'g'ridan to'g'ri qilingan murojaat she'rlarida ko'rish mumkin.

Ikkinchchi maktubda munojot isyonga aylana borganini kuzatish mumkin. Shoir ijtimoiy masalalarni nazarda tutar ekan, dunyodagi urushlar, taloto'plarni ko'rib nega jimsan, deya Yaratganga isyon qiladi.

Bir janggohga aylandi dunyo,

Bu janggohda nahot Sen yo'qsan?!

Bu oniy holat barcha ijod ahliga tanish bo'lsa kerak. So'z mulkining sultoniga Alisher Navoiyda ham shunday holatlar lahzalik tarzda bo'y ko'rsatganki, Hazrat ham Taqdirga tadbir yo'qligi haqida yozarkan, "Ne dersen bas bu jam'i benavog'a., Gunoh qilmayin qolq'on balog'a? " deya isyon qilgan o'rinlarini o'qiganimiz bor.

Maktublar so'ngida lirik qahramon yana umid va ishonch asosida iltijo qila boshlaydi:

Yoshimizni yomg'ir aylagan,

Sochimizni qor aylagan Zot.

Dardimizni yo'q qila qolgin,

Yo'qdan bizni bor aylagan Zot!

Ayni shu misralar o'qirmanning ham ko'ngliga taskin bo'lib yog'iladi. Shoiring tamsillar asosida bunyod bo'lgan yana bir she'ri "Yarashmoq uchun ham nizo tug'ilgan" misrasi bilan boshlanadi. Boshdan oxir hayotiy misollarni o'zining fikrlariga uyg'un tarzda

keltirgan mazkur she'rnning so'ngida shoir Yaratganga murojaat va munojot qiladi:

Kel, vahm sherini jayron qil, Xudo,  
Chavandoz nafsimni vayron qil, Xudo,  
Mendek bir yomondan yaxshi og'ochlar  
Undirib meni bir hayron qil, Xudo.

Mazkur to'rtlikda *vahm sheri*, *chavandoz nafs*, *yaxshi og'ochlar* kabi tamsillar keltirilishi tasodifiy emas. Shoir Yaratgannning cheksiz qudrati oldida o'zini ojiz-u notavon his qilarkan, nafsidan panoh tilaydi, dunyoviy vahimalardan asrashini, yaxshi og'ochlar - farzandlar kamolini Tangridan so'raydi.

Shoирning insoniy muhabbat kuylangan she'rlari orasida ona timsoli alohida ahamiyatga ega. Shoирning ona haqidagi satrlari "Hazrati ishq" kitobining ichidan turli mavzudagi she'rlar oralab joy olgan.

Mening bir qarzim bor yorug' dunyoda,  
Umrin yillariga urgay u taroq.  
U men kutganimdan ancha ziyoda,  
U sen o'ylagandan ancha kattaroq.

Shoирning qarzi nima bo'lishi mumkin? Umrining yillarini har yonga tarayotgan qarz nima bo'lishi mumkin? Matn osti ma'nolaridan bilish mumkinki, shoir bu o'rinda onasining oldidagi uzilmas qarzi haqida iqrorlik keltirmoqda. Shoir yana bir to'rtligida shunday xulosa beradi:

Topganimni yo'lga xarj qilaman men,  
Onam diydorini vaj qilaman men.  
Ka'ba tavofidir onam diydori,  
Bir yilda o'n marta haj qilaman men.

Shoir onaizor oldida ham ulkan burch va mas'uliyat his qilganini yuqoridagi satrlar isbotlaydi. Shoирning dunyoviy ishq kuylangan

she'rlarida hayrat, erkalik, samimiyat, xokisorlik kabi tuyg'ular bo'rtib ko'zga tashlanadi.

Yorijon,  
ay yorijon,  
ketdi jon sen sori, jon:  
ko'rmadim ko'rkam naqsh  
ko'zlariningday,  
yorijon!

Na Behzod-u na Artur,

Ro'zi,  
Chingiz,  
O'rol,  
Nur,  
na Pikasso yo Mahmud  
bo'yla surat chekibdur.

Yuqoridagi she'rni to'liq holatda keltirilishining sabablari bor. Avvalo, bu she'rni har kim o'zicha his qiladi, o'zicha tahlil qiladi. Bu she'rda Naqqoshning naqshidan hayratlangan muxlisni ham, mahbubasining go'zalligi oldida bosh eggan oshiqni ham, farzand ne'matining shukrini ado etayotgan bir bandani ham ko'rish mumkin. Shoirning ayoli Shohsanamxonning ta'kidariga ko'ra, bu she'rni Mansur qizi Orzuga alla sifatida ijro etib berar ekan. Shu bois ham bu she'rda har qanday sevgi mushtarak va uyg'un holda kelganini ko'rishimiz mumkin.

Boridan bezdi jonom,  
borligin sezdi jonom;  
jonom yo yerga kirdi,  
yo ko'kda kezdi jonom.  
Ko'zimdan sizdi jonom,  
bir savol ezdi jonom:

jonim-ay,  
jonim beray,  
seni kim chizdi, jonom?!

Seni kim chizdi, jonom?!

Mazkur she'rda lirik qahramonni hayajonlantirgan, uning cheksiz hayratlariga sabab bo'lган timsol bu Yorning go'zalligi. "Seni kim chizdi, jonom?!" ritorik so'roq gapi ayni Oliy Naqqoshga - Yaratganga ishora qilmoqda. Yaratganning yaratiqlaridan hayratlanish ham aslida insonlikning asosiy mezonlaridan biridir.

Ijtimoiy mavzular Mansurning she'rlarida bo'rtib ko'zga tashlanadi. Uning Muhammadali g'afforovga bag'ishlangan "Beshinchi musofir" she'ri shoirning ijtimoiy missiyasi haqidagi yirik planda yaratilgan kartinadir. She'r shimol tomonlarga ishlagani ketgan musofirlarning hayot tarzi haqidagi tasvirlar bilan boshlanadi. Tun cho'kib, hamma uxlayotganda konteyner ichidagi shoir yigit ijomod dardi bilan to'lg'ona boshlaydi:

Uyg'ondi,  
to'lg'ondi:  
sog'inch,  
ilhom,  
she'r.

Bu tun butun she'rdir –  
ko'ngil to'q edi.

Oltiga uch metr vagon-konteyner  
ichra undan bo'lak shoir yo'q edi.

Ushbu banddag'i bu tun, butun kabi so'zlar o'yini zulmatni yoritayotgan chiroqni o'quvchi ko'z oldida namoyon qiladi. Ilhomning cho'qqisida ijomod qilayotgan shoir elektr uzilishlariga guvoh bo'larkan, darhol qolgan to'rt sheringini uyg'otib, ularga she'r o'qib beradi:

Temir boshpanani daqqaq sayin  
ishg'ol qilar ekan sovuq ayoz, qish,  
to'rtta hamxonasin uyg'otib tayin,  
she'r o'qib berguvchi shoirga olqish!

Albatta, she'r ayozga bas kela olmasligini ta'kidlarkan, muallif shoiri bor vagondagi besh musofir kechasi bilan harakatda bo'lgani sabab ayoz zahriga bas kelishganini takidlaydi. Ammo shoiri yo'q boshqa vagondagi musofirlar esa sovuqdan muzlab vafot etishadi:

Ne chora bor, axir,  
kim nima ham der,  
barisi navqiron,  
g'ayir yo'q edi,  
lekin bu vagonda  
uyg'otib,  
she'r-per  
o'qib beradigan shoir yo'q edi.

Ayni shu nuqtada muallifning asl maqsadi voqeani shunchaki bayon etish emas, balki ushbu voqeiy she'r orqali shoirning insoniyat yashab qolishi uchun, o'zligidan, jonidan judo bo'lmasligi uchun naqadar zarur shaxs ekanligini ta'kidlashdir. Ushbu she'rdagi tirik qolgan besh musofir, vafot etgan musofirlar, konteyner, shoir, chiroq, ayoz - bularning bari ramz bo'lib umumiy bir g'oyani: shoirning insoniyat oldida burchi nihoyatda zalvarli ekanini isbotlaydi. Shoir chiroq kabi xalqini ayozlardan asramog'I, ularni uyquga bosh qo'yishlariga izn bermasdan, kerak bo'lsa, majbuhan bedor tutib, asramog'I lozimligi "Beshinchi musofir" she'rining asosiy xulosalaridan biridir.

Hali ham sovuqdir shimol, do'stlarim,  
hali ham bir g'aflat quvar erlarni...  
Ayozda chiroqsiz qoldirma, Tangrim,

shoiri yo‘q konteynerlarni!

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Mansur Jumayevning “Hazrati ishq” to‘plami Hazrati Ishqning yuksak ohangdagi tarannumi bo‘lgan she’riy guldastadir. “Hazrati ishq” - hayrati ishq! Shoirning umri uning she’rlari, munojotlari, maktublari, kitoblari orqali davom etaveradi. Muhammad Yusuf yozganiday:

O‘lsa, o‘zi o‘lar, so‘zi o‘lmaydi,

Hamisha barhayot nasl - shoirlar.

Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,

Yurakka ko‘milar asl shoirlar!